

ТА'ЛИМ TASHKILOTI RAHBARLARI IQTISODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TASHKILIY-DIDAKTIK MODELIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Nigmatova Gulnora Nurxanbetovna
MTTDMQTMOI Maktabgacha ta'lim menejmenti
kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya. Iqtisodiy kompetentlik rahbarning murakkab iqtisodiy shart-sharoitlarda yo'nalish topa olishini, iqtisodiy qarorlarni mustaqil va ma'suliyat bilan qabul qilishi hamda buning natijasida samarali boshqaruvga qobillik namoyon bo'lishini ta'minlab, bu bilan ta'lim tashkilotining raqobatbardosh bo'lib qolishiga imkon beradi.

Ushbu maqolada ta'lim tashkiloti rahbarlari iqtisodiy kompetentligini shakllantirishda tashkiliy-didaktik modelidan samarali foydalanish yo'llari va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llash istiqbollari keng yoritilgan, tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy kompetentlik, tashkiliy-didaktik model, pedagogik texnologiya, modellashtirish, fasilitatsiyalash, sub'yektivlik, psixologik, kontekstlik, variativlik, refleksivlik tamoyillari, blokli-modulli texnologiya, andragogik

Kirish

Jahonda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini izchil rivojlantirish orqali ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga erishish maqsadi ko'zlanmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirishda, yangi ijtimoiy siyosiy ehtiyoj va talablarga moslashgan malaka oshirishni yo'lga qo'yish, ta'limdagi mobillikni ta'minlashning variativ shakllarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish jarayonida ta'lim mazmunini takomillashtirish masalalari bilan YUNISEF, YUNESKOning Butundunyo ta'lim forumi Deklaratsiyasi, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030" dasturi, Erasmus + Capacity Building Project dasturi, IMEP loyihasi, Yevropa universitetlarining assotsiatsiyasi, malaka oshirish sifatini ta'minlash Yevropa ittifoqi davlatlarining yagona Yevropa ta'lim hududi shug'ullanmoqda.

Adabiyotlar sharxi

Modellashtirish nazariyasi qoidalariga murojaat qilamiz. Model deganda keng ma'noda soddalashtirilgan (sxemalashtirilgan yoki ideallashtirilgan) va ko'rgazmali

shaklda voqelikning u yoki bu qismini takror hosil qiluvchi nazariy yoki amaliy yaratilgan tuzilma tushuniladi.

Modelning eng asosiy belgisi bo'lib V.V.Krayevskiyning fikricha, shu narsa hisoblanadiki, bunda u "elementlarning biron-bir aniq qayd etilgan aloqadorliklarini namoyon qiladi, ichki, sezilarli o'zaro munosabatlarni va o'zaro aloqalarni aks ettiruvchi ma'lum bir tuzilmani ko'zda tutadi". Modellashtirish jarayoni biron-bir ob'yektni uni o'rganish uchun maxsus tarzda tashkil etilgan boshqa bir ob'yektda takror hosil qilish jarayonidir. Bizning vaziyatimizda modellashtirish ob'yekti bo'lib ta'lim oluvchining iqtisodiy kompetentligi shakllanishiga yordam beradigan ta'lim jarayoni sanaladi.[1]

O'z vazifalari bo'yicha mana shunday modelni ishlab chiqish amaliy xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni, modellashtirish ilgaridan belgilangan maqsad bilan shartlangan va natijalarni kelajakda amaliy qo'llashga yo'naltirilgan bo'ladi. Tadqiqotning bu bosqichida modellashtirish metodining tanlab olinishini asoslashda biz V.G. Afanasev [2], O.S. Vixanskiy [3], Y.A. Varkina [4], P.V. Kuzmin [5]larning ilmiy ishlariga tayandik. Modellashtirish nazariy izlanish metodini samarali qo'llashga, o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon haqidagi bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi, ularni yanada yaxlitroq bayon qilish yo'llarini ko'rsatadi, komponentlar orasidagi yanada to'laroq aloqalarni belgilab, yaxlit tasniflarni tuzish uchun imkoniyatlarni ochib beradi.

Taklif etilayotgan model iqtisodiy bilim, mahorat, shaxsning iqtisodiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish, ehtiyojlari, manfaatlari, motivlari, qadriyatli yo'nalishlaridan tortib to xulq-atvordagi va faoliyatdagi iqtisodiy kompetentlikning namoyon bo'lishigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Mana shunday yondashuv iqtisodiy kompetentlikning ta'rifidan kelib chiqadi va yaqqol namayon bo'ladi. Modellashtirishga kirisha turib biz loyihalashtirilayotgan model javob berishi lozim bo'lgan dastlabki talabni aniqlashtirib oldik. Bizning tadqiqotimizda u yakuniy maqsad – iqtisodiy kompetentlikning shakllanishiga yordam beruvchi pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Professor F.Xolmamatov o'zining ilmiy ishlarida iqtisodiy jarayonlarni samarali tashkil etish va rivojlantirishda iqtisodiy modellardan foydalanishni tavsiya qiladi. [7]

Maktabgacha ta'lim tashkilot rahbarlari iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik modelini tuzib chiqishda shuni yodda tutish lozimki, bu o'rinda gap yetarlicha murakkab bo'lgan bilish ob'yekti haqida bormoqda. Bu o'rinda biz ta'lim jarayonining ko'p jihatligi, ko'p omilligi va o'zgaruvchanligiga bog'liq holda modellashtirishga murojaat qilamiz. Asosiy ichki elementlar sifatida model o'z ichiga mashg'ulotlarni tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakli va metodlari, o'qitish ko'rsatkichlari va natijalari kabi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan komponentlarni oladi [6].

N.A.Muslimov kompetentlik tushunchasini shaxsiy sifatlar to'plami va kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida namoyon bo'lishi bilan uning mohiyatini ochib bergan. "Kompetentlik – bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatini amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi". [8]

B.Illhomovning tadqiqot ishi natijalarining amaliy ahamiyati professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan[9].

Sh.Qurbonovning ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsning kasbiy rivojlantirish muammolari va ta'limda insonparvarlashtirish tamoyilini amalga oshirish asoslari, ta'lim sifati va uni tarkibiy qismlari, ta'lim sifati ta'minlash omillariga e'tibor qaratilgan [10].

Tahlil va natijalar

Respublikamizda andragogik pedagogikaning ustuvor yo'nalishlari va g'oyalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirish mazmunini takomillashtirish, ta'limning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, zamonaviy malaka oshirishning modellari va texnologiyalarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "...maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish" vazifasi belgilanib, bu borada rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim mazmunini takomillashtirib borishda qulay sharoitlar yaratish, malaka oshirish turlari va shakllarini kengaytirish hamda o'zaro aloqadorligini ta'minlash orqali kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda turli xil ilmiy sohalar va yo'nalishlarda modellashtirish metodi juda keng tarqalgan. "Modellashtirish" atamasi pedagogika faniga texnik bilimlar sohasidan kirib kelgan.

Modellashtirish – bu real ob'yektni ideal, dastlabki ob'yektga o'xshash yoki boshqacha tarzdagi ob'yekt bilan o'rnini almashtirish jarayonidir. Bunda birinchi ob'yekt original deb, ikkinchisi esa model deb ataladi. Modellashtirish davomida o'rganishni, tahlilni soddalashtirish uchun ayrim dastlabki ehtimollik (taxmin)liklarga yo'l qo'yiladi. Shuningdek, modelni tuzib chiqishda modellashtirish nazariyasining asosiy qoidalari hisobga olinadi: maqsadga yo'naltirilganlik, ob'yektning va modelning o'zaro o'xshashligi, modelning tizimligi, modellashtirishda ob'yektiv va sub'yektivning birligi, modellashtirishning bilishga doir va shakllantiruvchi funksiyalari.

Eng avvalo, modelni tuzish uchun cheklovlarni va bir qator yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarni hisobga olish bilan tashkiliy tizim chegaralarini aniqlab olamiz.

Birinchi ehtimollik (taxmin). Malaka oshirish tizimini biz o‘z ichiga maqsad, vazifa, mazmun, shakl, metodlar, natija va uni baholash mezonlari kabi elementlarni oluvchi maxsus tashkil etilgan ta‘lim tizimi sifatida tushunamiz.

Ikkinchi ehtimollik (taxmin)ni tavsiflash uchun tadqiq qilinayotgan fenomenning quyidagi ob‘yektiv murakkabliklarini belgilab olamiz:

- ko‘pchilik maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining rahbarlarida iqtisodiy kompetensiyaning mavjud emasligi;

- ijtimoiy institut sifatida umumiy ta‘lim tizimining konservativligi;

- maktabgacha ta‘limni mablag‘lar bilan ta‘minlashga davlatning majburligi va uning bepullik xususiyati haqidagi fikrlar;

- rahbarlarning ko‘pchiligida yuqori yosh to‘sig‘ining mavjudligi;

- maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlarining tadbirkorlik, marketing, moliya masalalari va shu kabilarga nisbatan ishonchsizligi, yuzaki qarashlari;

- yakkahokimlikning barqaror tartibi, vakolatlarni uzatishning past darajasi, o‘zining almashtirib bo‘lmasligiga qattiq ishonch va “mensiz hamma narsa dabdala bo‘ladi” xususidagi e‘tiqodning kuchliligi;

- rahbar boshqaruvchilik faoliyatining turlicha stajga egaligi, ta‘lim tashkilotining tipologiyasi ham ta‘lim beruvchi e‘tiborga olishi lozim bo‘lgan iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi turli xil uslub, yondashuvlarning kelib chiqishini shartlaydi.

Yuqorida bayon etilganlar ikkinchi ehtimollik (taxmin)ni belgilab beradi. Yakuniy natijaga ta‘sir ko‘rsatuvchi barcha tashqi omillar (fiziologik o‘ziga xosliklar, rahbarning yoshi va boshqaruvchilik staji, diplom bo‘yicha mutaxassisligi, rahbarning o‘z qo‘l ostidagi jamoa bilan munosabatlari, ta‘lim tashkilotining nufuzi va h.k.) ko‘p sonli bo‘lganligi sababli inkor etiladi.

Uchinchi ehtimollik (taxmin) ta‘lim beruvchi sub‘yektga nisbatan chiqariladi. Biz faraz qilamizki, malaka oshirish tizimida pedagogik jarayonni tashkil etuvchi barcha o‘qituvchilar kompetentli yondashuvni amalga oshirish va maqsadga erishish uchun yetarli bo‘ladigan shaxsiy kasbiy kompetentlik darajasiga egadirlar.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirishni biz kompetentli, shaxsiy-yo‘naltirilgan, tizimli yondashuvlar pozitsiyasidan turib maxsus yaratilgan shart-sharoitlar ta‘siri ostida ta‘lim tashkiloti rahbarining ongidagi o‘zgarishlar jamlanmasi sifatida olib qaraymiz. Shakllantirish ham jarayon, ya‘ni, hodisalarning qonuniyatli, ketma-ketlikda o‘zgarishi bo‘lib sanalgani uchun shunga mos holda u yaxlitlik, tuzilmaning mavjudligi, diskretlik, murakkablik, tugallanmaganlik bilan tavsiflanadi.

Biz rahbarning iqtisodiy kompetentligi shakllantirilishini tashqi (malaka oshirish tizimida ta'lim olish, muhit) va ichki (tajriba, refleksiya) holatlar ta'siri ostida uning ijobiy o'zgarishlaridagi olg'a siljish deb ta'riflaymiz. Bu jarayonni biz shuningdek, quyidagi aloqa turlari: aloqa-paydo bo'lish, aloqa-qayta o'zgartirish, aloqa-singib kirish va aloqa-boshqarish kabilar bilan ta'minlanadigan aloqa-jarayon tarzida ifodalaymiz.

Ta'lim jarayonining vazifasi bunda yangi ehtiyojlarning shakllanishiga ko'maklashish (tabiiy daraja), ularning maqsadlar darajasigacha (ta'limiy daraja) va o'z-o'zini ifodalash (faoliyatli daraja)gacha oshirib borilishiga yordam ko'rsatishdan iboratdir. Bu yerda o'qituvchining (andragogning) vazifasi mahoratning shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlarni yaratish (ta'limiy daraja) va ularning faoliyat usullarida namoyon bo'lishiga ko'maklashish (faoliyatli daraja)dan iborat bo'ladi.

Modelning invariantli komponenti bo'lib malaka oshirish tizimining tamoyillari hisoblanadi.

Fasilitatsiyalash tamoyili sub'yektlarning kelishilgan harakatlarini eng avvalo, mavjud muammolar va qiyinchiliklarning sabablarini aniqlashga va ularni bartaraf etishga yo'naltirilganligini ko'zda tutadi.

Sub'yektlilik tamoyili o'qituvchi va ta'lim oluvchining "mazmun va metodni dolzarblashtirish yo'li" bilan sinergiyaviy o'zaro harakatlar hamkorligida maqsadlarga yetishlarini ko'zda tutadi.

Psixologik qulaylik tamoyili ta'lim oluvchining shakl va metodlarni tanlab olishda erkinligini ta'minlaydi, malaka oshirish sub'yektlarining diqqatini ishonch muhitini yaratishga va uni qo'llab-quvvatlashga, ijobiy kayfiyatga, shaxsiy o'sishning asosi sifatida o'zaro hurmatga jamlaydi.

Kontekstlik tamoyili kasbiy muammolarni hal qilish jarayoni sifatida malaka oshirishni tavsiflaydi. Bu tamoyil o'qituvchilarni rahbarning hayotiy va kasbiy muhim maqsadlari, roliga ta'lim dasturlarining moslab tuzilishiga yo'naltiradi.

Variativlik tamoyili ta'lim oluvchilarning turli kategoriyalaridagi mavjud ta'limiy ehtiyojlarni va amalga oshiriladigan ta'lim dasturlarining manzilligini hisobga olishda namoyon bo'ladi. Mana shu tamoyilga mos holda ta'lim oluvchi o'zining shaxsiy kasbiy muammolarini (o'qitish mazmuni, shakllari) hal qilishning o'z variantini tanlab oladi.

Refleksivlik tamoyili malaka oshirish jarayonidagi sub'yektlarni amalga oshirilayotgan o'zaro harakatlar va uning natijalarini o'zi tomonidan tahlil qilishga yo'naltiradi.

Biz o'ylaymizki, kompetentlikni shakllantirish to'rtta: loyihalovchi; korreksiyalovchi; shakllantiruvchi va refleksiv bosqichlardan iborat siklik jarayondir. Har bir bosqich – o'zining sifatli xususiyatlariga ega bo'ladigan biron-bir narsaning shakllanishidagi ma'lum bir pog'onadir. Bundayin sifat farqi har bir bosqichning

o'ziga xos maqsad va vazifalarini, ta'lim jarayoni sub'yektlarining o'zaro harakatlaridagi mazmuni va metodlarni belgilab beradi. Umumiy maqsadni hal qilish samaradorligi – rahbarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish - faqat har bir bosqichda ta'lim vazifalarining samarali hal qilinishi bilan ta'minlanishi mumkindir.

Pedagogikada shart-sharoitlar tadqiq qilinayotgan jarayon bilan birga boradigan ob'yektiv imkoniyatlar, holatlar va chora-tadbirlar jamlanmasi sifatida olib qaraladi. Ular ma'lum bir tartibda tuzilmalangan va belgilangan maqsadga erishishga yo'naltirilgan.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, quyidagi shart-sharoitlar yaratilsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligi ijobiy shakllanadi:

- shaxs darajasida iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishda rahbarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari;

- andragogik ta'lim dasturini amalga oshirish uchun modulli tizim;


- iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishni monitoring qilish.

Hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida o'z yo'nalishini topa oladigan kompetentli shaxsni shakllantirish amaliyotda bir tomondan, ta'lim mazmunini, ikkinchi tomondan esa – pedagogik texnologiyalarni yangilash vositasida amalga oshirilishi mumkin. Katta yoshlilarning ta'limi nazariyasi va amaliyotida boshqaruv kadrlarini tayyorlash bo'yicha ishlar tajribalari to'plangan bo'lib, ularda o'qitishning blokli-modulli texnologiyalari hamda muammoli-faol metodlari o'rin olgandir.

O'qitishning blokli-modulli texnologiyasi markazida ta'lim oluvchi joylashadi, ta'lim beruvchi esa uning kompetentligini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ta'lim beruvchining funksiyalari axborotli-nazorat funksiyasidan tortib, to maslahat-muvfiqlashtirish funksiyasigacha variatsiyalanadi.

Shuningdek, o'qitish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro harakatlari modullar – tugallangan axborotlar bloklari yordamida amalga oshiriladi. O'qitish metodlarini (ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi sub'yektlarning o'zaro harakat usullarini, ta'lim oluvchi tomonidan belgilangan maqsad va vazifalarga erishish usullarini) tanlab olishda afzallik muammoli-faol metodlarga beriladi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha biz tuzib chiqqan tashkiliy-didaktik modelni 1-rasmdagidek ifodalash mumkin.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari iqtisodiy kompetentligini shakllantirishning tashkiliy-didaktik modeli

Ta'lim mazmunini, ikkinchi tomondan esa – pedagogik texnologiyalarni yangilash vositasida amalga oshirilishi mumkin. Katta yoshlilarning ta'limi nazariyasi va amaliyotida boshqaruv kadrlarini tayyorlash bo'yicha ishlar tajribalari to'plangan

bo'lib, ularda o'qitishning blokli-modulli texnologiyalari hamda muammoli-faol metodlari o'rin olgandir.

O'qitishning blokli-modulli texnologiyasi markazida ta'lim oluvchi joylashadi, ta'lim beruvchi esa uning kompetentligini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ta'lim beruvchining funksiyalari axborotli-nazorat funksiyasidan tortib, to maslahat-muvfiqlashtirish funksiyasigacha variatsiyalanadi.

Shuningdek, o'qitish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro harakatlari modullar – tugallangan axborotlar bloklari yordamida amalga oshiriladi. O'qitish metodlarini (ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi sub'yektlarning o'zaro harakat usullarini, ta'lim oluvchi tomonidan belgilangan maqsad va vazifalarga erishish usullarini) tanlab olishda afzallik muammoli-faol metodlarga beriladi.

Xulosa

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirishga yo'nalitiriladigan malaka oshirish bo'yicha ta'lim jarayonini modellashtira turib, biz nazariy tahlil davomida quyidagilarni xulosa qildik:

1) Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirish – bu tashqi (malaka oshirish tizimidagi ta'lim jarayoni, muhit) va ichki (tajriba, refleksiya) holatlar ta'siri ostida ijobiy o'zgarishlar jarayonidir;

2) Malaka oshirish jarayonida yangi ehtiyojlarning shakllanishi, ularning maqsad darajasigacha ko'tarilishi, o'z-o'zini belgilash darajasigacha o'sib borishi, iqtisodiy kompetentlikning shakllanishi, uning faoliyat usullarida namoyon bo'lishi va iqtisodiy-huquqiy bilimlar mazmunining ortib borishi ro'y beradi;

3) Rahbarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirishning tashkiliy-didaktik modelini samarali yuzaga chiqarish quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar bilan ta'minlanadi:

- rahbarning shaxsiy darajada iqtisodiy kompetentligini shakllantirishdagi ta'limiy ehtiyoji (o'z iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy munosabat yuzaga kelishiga yordam beruvchi rahbarning malaka oshirishga motivatsion tayyorligi);

- andragogik ta'lim dasturini amalga oshirishning modulli tizimi (ta'lim jarayonining barcha sub'yektlari tomonidan ular faoliyatining rahbardagi iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish sifatida anglanishi; ta'lim beruvchi rolining o'qituvchilikdan tyutorlikka qarab o'zgarishi; muammoli o'quv vaziyatlarining yaratilishi; ta'lim mazmunining modulli tuzilmalanishi);

- rahbarning refleksiyasini va malaka oshirish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish jarayonining monitoring qilib borilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колесникова И.А. Основы андрагогики: учебное пособие для студентов вузов И.А. Колесникова, А.Е.Марон, Е.П.Тонконогая; под ред. И.А. Колесниковой. - М.: Академия, 2003. - 240 с.
2. Афанасьев Т.Р. Профессиональное развитие педагогов кадров муниципальной системы образования Кн. 1. Развитие профессионального мастерства педагогических кадров / Т.П. Афанасьев, П.В. Немова. - М., 2004. - 116 с.
3. Виханский О.С. Менеджмент: учебник / О.С. Виханский, А.И. Наумов. - М.: Гардарики 2000. - 528 с.
4. Варкина Й.А. Формирование экономической компетентности руководителя образовательного учреждения в процессе повышения квалификации/ Автореферат диссертации /Оренбург. -2009 г.
5. Кузьмин И.П. Развитие профессионализма инженерно-педагогических работников в системе дополнительного профессионально-педагогического образования И.П.Кузьмин. - М.: ИРПО, 2001. - 232 с.
6. Холмаматов, Ф. К. (2019). Тижорат банкларининг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш. И. ф. б. ф. д. дисс. автореф. И. ф. б. ф. д. илм. дар. ол. уч. такд. эт. дисс. автореф.–Тошкент.
7. Kubayevich, K. F., & Jaloliddinovich, R. A. Maqsudov Bunyod Abdusamat ugli, Sayfullayev Sirojiddin Soli ugli,(2020). Econometric Analysis of Factors Affecting Commercial Bank Lending. International Journal of Advanced Science and Technology, 29, 2160-2166.
8. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Diss. avtoreferati. – Т.: TDPU, 2007.
9. Ilhomov B.O. Professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish (malaka oshirish tizimi misolida) dis. avto. Toshkent. 2021.
10. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. –Т.: “Turon-Iqbol”, 2006. -592 b.